

**JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARIDA MIGRATSIYA
JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI (1991-2024-YILLAR)**

Norboyev Do'styor Farxod o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar univeristeti

2-kurs magistranti

Dostyornorboyev@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 1991-2024 yillar oralig'ida yuz bergan migratsiya jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ichki va tashqi migratsiya oqimlari, ularning hududiy rivojlanish va aholi tarkibiga ta'siri o'rganilgan. Migratsiya jarayonlarining asosiy omillari sifatida iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, urbanizatsiya jarayonlari va mehnat resurslarining notekis taqsimlanishi aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, migratsiya hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni kuchaytirgan va qishloq hududlarda iqtisodiy imkoniyatlarni cheklangan holga keltirgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, Jizzax viloyati, Sirdaryo viloyati, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, urbanizatsiya, demografik o'zgarishlar, hududiy rivojlanish, iqtisodiy imkoniyatlar, davlat siyosati.

**ОСОБЕННОСТИ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В
ДЖИЗАКСКОЙ И СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЯХ (1991-2024 ГГ.)**

Норбоев Достер Фарход угли

Университет точных и социальных наук

студент 2 курса магистратуры

Dostyornorboyev@gmail.com

Аннотация: в статье дается подробный анализ миграционных процессов, происходивших в Джизакской и Сырдарьинской областях в период с 1991 по 2024 год. В исследовании рассматриваются внутренние и внешние миграционные потоки, их влияние на региональное развитие и

структуру населения. Основными факторами, движущими миграционными процессами, были определены ограниченные экономические возможности, процессы урбанизации и неравномерное распределение трудовых ресурсов. Результаты показывают, что миграция усугубила неравенство в региональном развитии и ограничила экономические возможности в сельских районах.

Ключевые слова: миграция, Джизакская область, Сырдарьинская область, внутренняя миграция, внешняя миграция, урбанизация, демографические изменения, региональное развитие, экономические возможности, государственная политика.

FEATURES OF MIGRATION PROCESSES IN JIZAKH AND SIRDARYA REGIONS (1991-2024)

Norboyev Dostyor Farkhod ugli

University of Exact and Social Sciences

2nd year master's student

Dostyornorboyev@gmail.com

Abstract: *this article provides a detailed analysis of the migration processes that occurred in Jizzakh and Syrdarya regions between 1991 and 2024. The study examined internal and external migration flows, their impact on regional development and population structure. The main factors of migration processes were identified as limited economic opportunities, urbanization processes, and uneven distribution of labor resources. The results show that migration has increased disparities in regional development and limited economic opportunities in rural areas.*

Keywords: migration, Jizzakh region, Syrdarya region, internal migration, external migration, urbanization, demographic changes, regional development, economic opportunities, state policy.

KIRISH

Qadimgi dunyo tarixidan xabardor bo‘lgan kishilar Yunoniston, Rimda fan va madaniyat taraqqiy etganini yaxshi biladi, albatta. O‘sha davr boshlarida qariyb barcha bilimlar tarix fani doirasida jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va sotsiomadaniy xususiyatlar rivojlanib kelgan edi. Inson jamiyat muhiti bilan ijtimoiylashuvi natijasida bilim va mehnat unumdorligiga bo‘lgan intilishi muayyan davrga kelib, ma’naviy, iqtisodiy va sotsial nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Migratsiya jarayonlarining murakkab tabiati bir qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy sharoitlar va davlat siyosati bu jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. 1991-yilda O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatning demografik ko‘rsatkichlariga ham ta’sir qilgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar migratsiyaning ichki va tashqi oqimlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Jizzax va Sirdaryo viloyatlari bu jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan namoyon bo‘lishida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotining dastlabki shakli vujudga keldi va fanning nazariy jihatlarini o‘rganuvchi kishilar toifasi paydo bo‘ldi.¹

DUNYODA VA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA MIGRATSIYA JAYARONLARINING TUB YERLI AHOLIGA KO‘RSATGAN TA’SIRI

¹ Q.Nazarov /Falsafa asoslari.— T., O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.B.27 -2
SJIF:5.219

XIX asr boshlarida ko‘plab tadqiqotchilar mehnat migratsiyasi va uning omillariga e‘tibor qarata boshladi. Mana shunday sharoitda, ijtimoiy fanlardagi birinchi maktablardan biri Amerikada yuqori mavqega ega bo‘lgan Chikago maktabi tashkil etildi. Ushbu ijtimoiyi sotsologiya maktabi tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan aholi migratsiyasini o‘rganish metodologiyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Chikago maktabi 1915-yildan 1935-yilgacha Amerika sotsiologiyasida ustun mavqeni egalladi va jamiyat sotsiologiya rivojlanishiga o‘z ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maktab vakillari aholi migratsiyasi muommolarini empirik sotsiologik tadqiqotlar orqali o‘rganganlar. XIX asr oxiri XX asirning boshlarigacha Sharqiy Yevropadan kelgan irlandlar, italiyaliklar, yahudiylar Qo‘shma Shtatlardagi eng yirik immigrant guruhlar tashkil qilib, migrantlarning yangi jamiyatga moslashishi asosiy masala hisoblanib. Mamlakatda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq, etnik nizolarni hal qilish, muhojirlarning deviant xatti- harakatlari oldini olish va boshqa muammolarni o‘rganish orqali migratsiya jarayonlarini tartibga solish mehanizmlarini ishlab chiqishga imkon berdi. Shuningdek, AQSh tarixida birinchi marotaba F.Ruzvelt (AQShning prezidenti) ishsizlikni jamiyat muommosi sifatida e‘tibor qaratgan. Ishsizlarga favqulodda yordam ko‘rsatish uchun vaqtinchalik boshqarma tashkil etildi. Keyinchalik u zamonaviy Amerikani o‘zgarishiga sabab bo‘lgan mashhur «Yangi yo‘nalish»ga poydevor yaratib bergan davlat dasturlarini ishlab chiqishga erishdi.

Migratsiya tushunchasni demografik ensiklopediyasida (lotin tilidan - ko‘chirish) - bu insonlar(migrantlar)ning doimiy yashash joyini boshqa bir hududga

o'zgarishi, ko'chib o'tishi, harakatlanishi², - deb izohlandi.

Bugungi kunga kelib Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi jami xalqaro mehnat migrantlarining soni 272 million kishiga yetgan bo'lib, ular tomonidan amalga oshirilgan pul o'tkazmalarining hajmi 689 milliard AQSh dollariga yetgan.³

JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARINING MIGRATSIYA JARAYONLARINI AHOLI TURMUSH TARZIGA KO'RSATGAN TA'SIRI

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan turli xususiyatlarga ega. 1991-yildan keyin viloyatdagi urbanizatsiya darajasi oshgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi hali ham asosiy iqtisodiy sektor sifatida qoldi. Bu esa migratsiya jarayonlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib, aholi ko'chishining asosiy sabablaridan biri qishloq joylardagi ish o'rinlarining yetishmovchiligi bo'ldi.

Sirdaryo viloyati esa irrigatsiya tizimiga asoslangan qishloq xo'jaligi bilan mashhur bo'lib, shahar hududlari kamligi va infratuzilma rivojlanishining cheklanganligi sababli ichki migratsiyaga sezilarli darajada ta'sir qilgan. Viloyatdagi iqtisodiy sharoitlarning murakkabligi tashqi migratsiyaning kuchayishiga olib kelgan. Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarga mehnat migrantlarining oqimi bu hududlarda aholi sonining kamayishiga sabab bo'lgan. O'zbekistonda aholi o'sishining asosiy manbasi tug'ilish hisobiga ortishi, xorijda yurgan migrantlarni son jihatidan qoplaydi. Natijada O'zbekistonda aholi

² Социальная работа как профессия (аналитическая обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1993. №3. – С. 91.

³ International migration report 2020. UN. N.Y. 2020. P. 3

dinamikasining yangi turi shakllandi, bunga ko‘ra Respublikada tug‘ilish soni asosiy ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.⁴

Migratsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, mintaqalar bo‘yicha aholi harakatchanligi oshgan sari ularning turmush darajasidagi ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ham oshishi kuzatilgan.

Mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalani hozirgi vaqtda xalqaro aholi mehnat migratsiyasining eng karakterli tendensiyalari etib:

- ✓ geografik chegaralarning kengayishi, aholining faol hududiy harakati zonalari;
- ✓ aholi daromadining o‘shishi natijasida muxojirlar o‘z oilalariga pul o‘tkazmalarini yuborishi natijasida ushbu mamlakatning iqtisodiy balansiga ijobiy ta’sir etadi;
- ✓ xalqaro aholi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati ortib borishi;
- ✓ intellektual migratsiyaning ahamiyatini oshirilishi (aqlning ko‘chishi);
- ✓ soliq to‘lashdan bosh tortish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga asoslangan iqtisodiy migratsiya oqimlarining yangi turlarining paydo bo‘lishi.

Migratsiya oqimi o‘shishining asosiy tendentsiyasi sayyoramizdagi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini va rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchining bo‘lgan talabni ortib borayotgani bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ”aholining aksariyat

⁴ Begimkulov, J. (2024). Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatida yuz bergan ijtimoiy-demografik o‘zgarishlar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024(2), 21-26.

qismi xorijga, ishlash uchun, oilasi ortidan va tahsil olish bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ko‘chib ketishadi”.⁵

Mamlakat mehnat taqsimotida tuman ko‘p issiq va uzoq vegetatsiya davrini talab etuvchi ekinlari (paxta, pilla, g‘alla, poliz) yetishtirishga hamda bog‘dorchilik, chorvachilik, uzumchilik, sanoatda elektroenergetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat tarmoqlariga ixtisoslashgan. Oxirgi yillarda bu yerda tog‘-kon, kimyo, to‘qimachilik sanoatlari ham rivojlanib ishlab chiqarishni rivojlantirmoqda.

Iqtisodiy tumanning tarkibini tashkil etuvchi, hududiy tuzilishiga ko‘ra bir-biriga deyarli o‘xshamaydigan Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tabiiy sharoiti va foydali qazilmalariga ko‘ra birmuncha farq qiladi. Darhaqiqat, Sirdaryo viloyatida deyarli birorta foydali qazilma konlari uchramasa-da, Jizzax viloyati bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining demografik xolati umumiy demografik tuzilmada yoshlar asosiy kursatkichni tashkil qilishi, mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchining yuqori o‘sish sur‘atlari (yiliga o‘rtacha 400 ming kishidan ortiq) bilan ifodalanadi.⁶

XULOSA

1991-2024 yillar davomida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida kuzatilgan migratsiya jarayonlari bu hududlarning demografik va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Migratsiyaning asosiy sabablari qatoriga iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, ish o‘rinlarining yetarli emasligi va urbanizatsiya

⁵ World Migration Report 2022, International Organization for Migration, <https://worldmigrationreport.iom.int/>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari www.stat.uz demografik ko‘rsatkichlar.

jarayonlari kirdi. Ushbu hududlardan xorijga mehnat migratsiyasi oqibatida iqtisodiy resurslarning chetga chiqishi kuzatilgan, ammo bu jarayon oilalar daromadiga ijobiy ta'sir qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Nazarov /Falsafa asoslari.— T., O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.B.27 -2.
2. Социальная работа как профессия (аналитическая обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1993. №3. – С. 91.
3. Begimkulov, J. (2024). Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatida yuz bergan ijtimoiy-demografik o'zgarishlar. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024(2), 21-26.